

**O‘ZBEKISTONING JUNUBIY O‘LKALARIDA
MAROSIMLAR(SAROY) URUG‘I MISOLIDA**

Xudoyberdiyev Rashid Zokir o‘g‘li

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalqining janubiy o‘lkalarida milliy marosimlar fikr va mulohazalar yuritiladi. Asosan, O‘zbekistonning janubiy hududlarida yashagan chorvodor xalqning rang-barang madniy merosini ko‘rishimiz mumkin. Janubiy hududlarda Zardushtiylik dinining o‘rni alohida ajralib turadi, maslan Mitra ilohi deqonchilik va chorvachilik homiysi sifatida ulug‘lanishidir. Har bir xalqning milliy an‘analari – bu uning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma‘naviy qadriyatlarining jamlanmasidir. O‘zbek xalqi uzoq asrlar davomida shakllangan boy an‘naviy hayot tarzi, urf-odatlar va qadriyatlari bilan ajralib turadi. Bugungi globallashuv davrida esa bu an‘analar zamonaviylik bilan uyg‘unlashib, yangi shakl va mazmunga ega bo‘lmoqda

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalqi, saroy urug‘i, milliy va diniy marosimlari, urf-odatlar, hayot tarzi, chorvachilikning o‘rni, an‘analari.

**НА ПРИМЕРЕ ЦЕРЕМОНИАЛЬНОГО (ПРИХОДСКОГО) РОДА
В ЮЖНЫХ РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА**

Худойбердиев Рашид Зокир угли

Ташкентская медицинская академия

Преподаватель кафедры общественных наук

Аннотация: в статье рассматриваются национальные обряды и ритуалы узбекского народа южных регионов. По сути, мы можем увидеть разнообразное культурное наследие скотоводческих народов, проживавших в южных регионах Узбекистана. В южных регионах особое место занимает

зороастрийская религия, например, прославление бога Митры как покровителя земледелия и скотоводства. Национальные традиции каждого народа представляют собой совокупность его исторической памяти, культурного наследия и духовных ценностей. Узбекский народ отличается богатым традиционным укладом жизни, обычаями и ценностями, которые формировались на протяжении многих веков. В нынешнюю эпоху глобализации эти традиции сливаются с современностью и приобретают новые формы и значения.

Ключевые слова: *узбекский народ, придворный род, национальные и религиозные обряды, обычаи, образ жизни, роль и традиции животноводства.*

CEREMONIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN ON THE EHAMPLE OF THE (PARISH) CLAN

Khudoyberdiev Rashid Zakir ugli
Tashkent Medical Academy
Teacher of the Department of Social Sciences

Abstract: *this article discusses the national ceremonies of the Uzbek people in the southern regions. Basically, we can see the diverse cultural heritage of the pastoral people who lived in the southern regions of Uzbekistan. In the southern regions, the role of the Zoroastrian religion is particularly prominent, for ehample, the glorification of the god Mithra as the patron of pastoralism and animal husbandry. The national traditions of each people are a collection of its historical memory, cultural heritage and spiritual values. The Uzbek people are distinguished by their rich traditional way of life, customs and values, formed over*

many centuries. In today's era of globalization, these traditions are merging with modernity and taking on a new form and meaning.

Keywords: *uzbek people, court clan, national and religious ceremonies, customs, lifestyle, the role and traditions of animal husbandry.*

Saroylar qo'shni madaniyat va sivilizatsiyalarning turli ta'sirida shakllangan uzoq va qadimiy tarixga ega bo'lgan xalqdir. Asrlar davomida ular o'zlarining ko'chmanchilik mohiyatini saqlab qolib, bu me'rosni o'ziga xosligini analiz qildilar. Qadim tangrilarni uy xayvonlari shaklida tasavvur etish odamzodning chorvaga muqaddas nazar bilan qaraganligidandir. Saroylarning diniy qarashlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Zardushtiylik dini asoschisi Zardushtra (tushtr-ushtur-shutur-tuya), ya'ni oltin tuya, chunki Zardusht karvonboshi-sarbon-yo'lboshchi deb bilishgani. Aynan yomon nazarga karshi kurash timsoli sifatida odam kuzining tasviri tugdona daraxtidan yasalgan tumorlar, ko'zmunchok, isiriq, qalampir, chaqichtikon kabi narsa-buyumlar yozuvlikka qarshi kurash vositasi sifatida talqin etilgan. Shuningdek, omochning tishi "Poza", cho'pon tayog'i ham xuddi shunday ilohiylashtirilgan. Xatto kinna, jin va alvastini haydashda poza bilan silash holati ham mavjud. Cho'pon tayog'i ham aynan shunday muqaddaslashtirilgan buyum bo'lib, cho'pon tayog'i asosan, uyning keragi qismiga qistirib qo'yilgan, yerga tashlanmagan. Cho'pon tayog'ining ustidan xatlab o'tilmagan, chupon tayoq otadan bolaga o'tuvchi baraka ramzi sanalgan, cho'pontayoq yovuz ruhlarni xaydovchi qurol sifatida e'zozlangan.

Cho'pontayok asosan irgay yoki zarangdan to'qqiz qarich kesilgan va odam bo'yi barobarida bo'lgan. Irg'ay to'g'i o'sadigan daraxt bo'lib, to'g'rilik va

poklikka qiyos etilgan. Saroy urug‘ining charvodorlarini ham o‘z pirlari bo‘lgan. Jumladan, qoramollar piri sifatida Bobozangi ya’ni Zangiota, mayda mollarning piri Cho‘pon ota, ot va chorvadorlarning piri esa qambarota hisoblangan.

Vohada dehqonchilik bilan bog‘lik bo‘lgan ko‘pgina qadimiy marosimlar borki, ular o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Voha aholisi Bobodehqon va u bilan bog‘lik urf-odatlariga qat’iy amal qilgan hamda uning ruhiy quvvat berishiga ishonganlar. Shu boisdan voha axolisi ekin ekayotganda Bobodehqon barakasini bersin, deb xudoyi qilishgan. “Loy tutish” marosimi. Vohada dastlab ekin ekishdan avval ariqlar qazilib, loyqalardan tozalanadi. Shu vaqtda dehqonchilik marosimlaridan biri “Loy tutish” marosimi o‘tkaziladi. Ariq qaziyotgan odamlar oldidan biror yulovchi o‘tib qolsa, o‘tayotgan yo‘lovchiga ariq qaziyotgan odamlardan bittasi bel yoki ketmonda loy tutadi. Yulovchi tutilgan loyni uzatilgan asbobi bilan birga olishi, shu jarayonda yo‘lovchi o‘zining biror hunarini ko‘rsatib, vaziyatdan chiqib ketishi mumkin. Xususan, baxshi dostondan terma kuylashi, xofiz qo‘shiq aytishi, polvon kurashga tushishi, hunarmand esa ariq qazuvchilarning asboblarini ta’mirlashi lozim. Agarda bu holatdan chiqib keta olmasa, ariq qazuvchilarni mehmon qilishi yoki bo‘lmasa ular tomonidan ko‘rsatilgan ariqni tozalab berishi lozim.

Dehqonchilikka aloqador marosimlarning deyarli barchasiga mazkur udum yo‘l ochib beradi, bu marosimga qishloq ahlining barchasi ishtirok etgan. “Shoxmoylar” udumi erta bahorda, asosan, Navruz kunlari o‘tkazilgan. Odatda qishloq ahli o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, marosimga har xil taomlar tayyorlashgan. Marosim o‘tkaziladigan joyda qishloq ahli tomonidan pishirib kelingan taomlar tanovul qilingan. Shundan keyin yoshi ulug‘ badavlat kishi

tomonidan bu yilgi dehqonchilikka Alloxdan qut-baraka surab, duo qilingan. Xatto o'tgan yilgi bug'doydan qilingan non bo'laklarga bo'linib, marosim ishtirokchilriga tarqatilgan, bir bo'lagi qo'shga qo'shilgan xo'kizga berilgan.

Ho'kizlarning baquvvat bo'lishi uchun ularning shoxiga zigir moyi surtilgan, yomonko'zdan, ins-jinsdan asrasin deb, isiriq ham tutatilgan. Shu kishi tomonidan dastlabki qo'sh solinib, toq sonida imkoniyatiga qarab, uch, besh yoki yetti marta qo'sh haydagan. So'ngra o'tgan yilgi hosilning oxiri tutamidan olingan bug'doydan qo'sh bilan xaydalgan yerga bir necha xovuch sepilgan. Shu bilan baxorgi ekin-tekin ishlari boshlanib ketgan. "Sur xotin" marosimi. qadimdan shaklanib kelgan dehqonchilik marosimlaridan biri "Sur xotin" marosimidir. Bu marosim, asosan, yil qurg'oqchilik kelgan yillarida lalmi dehqonchilik bilan mashg'ul bulgan xududlarda o'tkazilgan. Qishlokdan o'n besh kishi odam shaklida qo'girchoq yasab, qo'girchoqqa yoshi keksa ayolning ko'ylagini kiydirib, ko'chalarni aylangan. Qolganlari esa "Sur xotin" qo'shig'ini aytishgan, ertasi kuni esa yig'ilgan xayr-ehsonlardan qishloqning bir chekka joyida osh qilinib, xalqqa berilgan. "Sur xotin" marosimi yakunidagi qo'g'irchoqni kuydirib yuborish yoki eski quduqqa tashlash udumi uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning qurbonlik qilish marosimining qoldiqlaridan biridir. Vohada dehqonchilikda yetishtirilgan xosilni yig'ib-terib olishdan oldin "Xayrihudoyi" marosimi o'tqaziladi. Bu marosimda mo'l-ko'l xosilni eson-omon yig'ishtirib olishni niyat qilib, xudoyi qilinadi. Qadimiy dehqonchilik marosimlaridan yana biri "Oblo baraka" marosimidir. Hasharchilar bug'doy o'rimining so'ngida bir parcha o'rilmagan yerni har tomondan o'rab, asta o'rib kelaveradilar. Bunday paytda har bir o'roqchi oxirgi tutam bug'doyi o'rab olishga harakat qiladi. Oxirgi tutam bug'doy esa "Ona
SJIF:5.219

bug‘doy” deb yuritiladi, qaysi bir o‘roqchi ana shu tutamga yetib olsa, “yettim-yettim, oblo baraka bersin” deb uni o‘rib oladi. Voha aholisining dehqonchilik bilan bog‘lik marosimlar va urf-odatlarini ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelgan hamda kelajak avlodning qadriyatlarini e‘zozlashga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, voha xalqining an‘analari asrlar davomida shakllangan, xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qarashlari va urf-odatlarini mujassam etgan bebaho boylikdir. Har bir marosim, kiyim, taom, kashtachilik, mehmondo‘stlik va oilaviy qadriyatlar orqali voha xalqining milliy o‘zligiga sadoqati va o‘ziga xos dunyoqarashi namoyon bo‘ladi. Bugungi zamonaviy jamiyatda ham bu an‘analar zamonaviy hayotga moslashtirilgan holda yashab kelmoqda. Bu esa milliy madaniyatning uzluksizligi, tirikligi va xalq g‘ururining timsolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.
2. Madraximov, A.S. Xuvaytov I.E. Baxor bayramlari. Havro‘z hikmatlari. Havro‘z dasturxonlari.-Toshkent; Qomuslar Bosh tahririyati, 1994.
3. Beruniy Abu Rayxon. Uylar, xikmatlar, naqlar, she‘rlar. (To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Abdusodiq Irisov). -Toshkent; Yosh gvardiya, 1973.
4. Berdiev X Birinchi odam viloyati. -Toshkent; Nur, 1991.
5. Botirov I., Annayev T. Surxondaryo viloyati arxeologiya muzeyi qisqacha yo‘llanma. -Toshkent; Sharq, 2002.
6. Botirov I.T. Termiz tarixiy manbalarda. -Toshkent; Fan, 2010.



-
7. Botirov I.T. Surxondaryo viloyati ulkashunoslik muzeyi tarixi. - Toshkent; Fan, 2001.
 8. Valixujayev Boturxon Xoja Axror tarixi; (Samarkand va samarkandliklar). —Toshkent; Yozuvchi, 1994.